
YAKKA-YOLG'IZ YASHOVCHILAR MEHR VA E'TIBORDAN CHETDA QOLMAYDI



Qo'shtepa tumanida ehtiyojmand oilalar, yolg'iz keksalar, bir so'z bilan aytganda ijtimoiy ko'makka muhtoj fuqarolarga doimiy e'tibor ko'rsatilib, zaruriy ko'maklar berib kelinmoqda.

Xolmoma Norqo'ziyeva Vatan mahallasida yakka-yolg'iz yashaydi. Boshpanasiz qolgan ayol e'tibordan chetta qolgani yo'q. Tuman hokimligi va mahalla mas'ullari tomonidan doimo uning xolidan xabar olinib, beg'araz yordam berib kelinmoqda.

Shu kunlarda Xolmoma Norqo'ziyevaga sektor rahbarining tashabbusi bilan barcha qulayliklarga ega 3 xonali yangi uy qurib berilmoqda. Hashar yo'li bilan beg'araz qurilayotgan imorat uchun mahalla ahli hamda saxovatpesha xomiylar baholi qudrat yordam berishmoqda. Kuni kecha tuman "Mahalla" xayriya jamoat fondi hamda "Nuroniy" jamg'armasi tomonidan Xolmoma Norqo'ziyevaning holidan xabar olinib, unga zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-09-06 08:37:27